



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

**07.00.08 – TARIXSHUNOSLIK, MANBASHUNOSLIK VA TARIXIY
TADQIQOT USULLARI IXTISOSLIGI BO‘YICHA
TAYANCH DOKTORANTURAGA KIRISH SINOVLARI
UCHUN MUTAXASSISLIK FANLARIDAN**

DASTUR VA BAHOLASH MEZONI

Samarqand – 2026

Annotatsiya:

Dastur 07.00.08 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari talabgorlari uchun 2026-yilda tasdiqlangan o‘quv rejasidagi asosiy fanlar bo‘yicha tuzildi.

Tuzuvchilar:

Ergashev B.E.	–	SamDU, Tarixshunoslik va manbashunoslik kafedrasi mudiri, tarix fanlari doktori, professor
Saidov I.M.	–	SamDU, Tarixshunoslik va manbashunoslik kafedrasi professori, tarix fanlari doktori, professor
Radjabova D.N.	–	SamDU, Tarixshunoslik va manbashunoslik kafedrasi dotsenti, tarix fanlari doktori, dotsent
Yarmatov O.Sh.	–	SamDU, Tarixshunoslik va manbashunoslik kafedrasi dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Dastur Tarix fakultetining 2026-yil 26-avgustdagi 1-sonli Kengash yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

KIRISH

Mustaqil O'zbekistonning tarixiy taraqqiyotini xolis va ilmiy asosda o'rganish, milliy qadriyatlar, madaniy meros va davlatchilik an'analarini qayta tiklash hamda ularni ilmiy tadqiq etish bugungi tarix fanining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Mustaqillik yillarida tarix fanining mazmuni va metodologik asoslari tubdan yangilanib, tarixiy jarayonlarga yangicha fikrlash, xolislik, tarixiylik, ilmiylik va dalillarga asoslangan yondashuv tamoyillari asosida baho berish imkoniyatlari kengaydi. Shu bilan birga, O'zbekiston xalqlari tarixining dolzarb muammolarini tadqiq etish, o'zbek davlatchiligining tarixiy ildizlari va rivojlanish bosqichlarini chuqur o'rganish, tarixiy tadqiqotlarning zamonaviy usullarini takomillashtirish tarixshunoslik va manbashunoslikning muhim vazifalarini tashkil etadi.

Tarixiy manbalarni izlash, aniqlash, tasniflash, tavsiflash, tanqidiy tahlil qilish va ilmiy muomalaga kiritish tarixiy tadqiqotlarning metodologik asoslaridan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida qadimiy yozma manbalarni asrash, ularni chuqur o'rganish, ilmiy tadqiqotlar uchun keng foydalanish va yosh tadqiqotchilarni ushbu yo'nalishga jalb etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur vazifalar tarixshunoslik va manbashunoslik sohasida zamonaviy ilmiy-tadqiqot yondashuvlarini rivojlantirish zaruratini yanada kuchaytiradi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy va ilmiy-innovatsion islohotlar tarix fanining oldiga ham yangi vazifalarni qo'ymoqda. Xususan, 2017–2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi hamda 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida inson qadrini ulug'lash, xalqparvar davlat va erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, qonun ustuvorligini ta'minlash, inson kapitalini yuksaltirish, ma'naviy taraqqiyotni yangi bosqichga olib chiqish, ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish kabi ustuvor yo'nalishlar belgilangan. Mazkur jarayonlar tarixiy tafakkurni rivojlantirish, milliy tarixni xolis va tanqidiy o'rganish, tarixiy xotira va milliy o'zlikni anglashning ilmiy asoslarini mustahkamlashni taqozo etadi.

Tarixshunoslik va manbashunoslik bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni zamonaviy ta'lim va ilm-fan taraqqiyoti talablari asosida tashkil etishda xalqaro ilmiy hamkorlik, akademik muloqot, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish, ochiq ilmiy axborot resurslari bilan ishlash va zamonaviy tadqiqot metodlarini egallash alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Respublikasining ta'lim va ilm-fan sohasidagi davlat

siyosati doirasida yuqori malakali, mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va tadqiqot kompetensiyalariga ega ilmiy kadrlarni tayyorlash oliy ta'limdan keyingi ta'limning muhim vazifalaridan biridir.

Tarixshunoslik va manbashunoslik fani tarixiy bilimlarni shakllantirish va rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini belgilovchi fundamental fanlardan biridir. Mazkur fan tarixiy asarlar, yozma va boshqa turdagi tarixiy manbalarni ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularning kelib chiqishi, yaratilish sharoiti, muallifligi, xronologiyasi, mazmuni, ilmiy va tarixiy qiymati hamda haqqoniylik darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Bunda tarixiy manbalarni tashqi va ichki tanqid usullari asosida o'rganish, manbadagi ma'lumotlarni boshqa manbalar bilan qiyosiy tahlil qilish hamda tarixiy voqea-hodisalarni dalillarga asoslangan holda ilmiy talqin etish muhim metodologik talab hisoblanadi.

Tarixshunoslik va manbashunoslikning nazariy hamda metodologik chegaralari tarixiy manbalarning yangi turlarini ilmiy muomalaga kiritish, zamonaviy tadqiqot metodlarining rivojlanishi va fanlararo yondashuvlarning kengayishi bilan muntazam ravishda takomillashib bormoqda. Ayniqsa, yozma, arxeologik, epigrafik, numizmatik, etnografik, statistik, audiovizual va raqamli manbalarni kompleks o'rganish tarixiy tadqiqotlarning ilmiy imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu sababli tarixshunoslik va manbashunoslik bo'yicha tadqiqotchi manbalarni aniqlash, tasniflash, verifikatsiya qilish, tanqidiy baholash va ilmiy xulosalar chiqarish kompetensiyalariga ega bo'lishi lozim.

Mazkur dastur tarixshunoslik va manbashunoslikning nazariy asoslari, tarixiy tadqiqot metodlari, tarixshunoslikning rivojlanish tendensiyalari, manbalarni ilmiy tahlil qilish tamoyillari hamda zamonaviy ilmiy-tadqiqot yondashuvlarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan. Dastur mazmunida mustaqil O'zbekiston tarixining dolzarb muammolari, o'zbek davlatchiligi tarixi, tarix fanining rivojlanish tamoyillari, tarixiy tadqiqot usullari, milliy qadriyatlar va madaniy merosni o'rganish, tarixiy manbalarni tanqidiy tahlil qilish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratiladi.

Shuningdek, mazkur fan "Fan va texnika tarixi", "Muzeyshunoslik va arxivshunoslik", "Tarix o'qitish metodikasi", "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari Mustaqil O'zbekiston tarixini o'rganishda manba sifatida" kabi fanlar bilan uzviy aloqador bo'lib, tarix sohasida ta'lim olayotgan magistrantlar, doktorantlar va mustaqil izlanuvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyati uchun nazariy-metodologik asos vazifasini bajaradi. Ushbu oliy ta'limdan keyingi ta'lim dasturi tegishli malaka talablari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, 07.00.08 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari ixtisosligi bo'yicha doktoranturaga kirish imtihonlariga tayyorgarlik ko'rish, tadqiqotchilarning nazariy-metodologik

bilimlarini baholash hamda ularning mustaqil ilmiy-tadqiqot olib borish kompetensiyalarini aniqlashga yo'naltirilgan.

Dastur doirasida bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni baholashda tarixiylik, ilmiylik, xolislik, tizimlilik, tanqidiy tahlil, dalillarga asoslanganlik va fanlararo yondashuv tamoyillariga tayaniladi. Baholash mezonlari tadqiqotchining tarixiy manbalarni mustaqil tahlil qilish, tarixshunoslikdagi ilmiy konsepsiyalarni qiyoslash, zamonaviy tadqiqot metodlaridan foydalanish, ilmiy muammoni aniqlash, asoslangan xulosa va ilmiy farazlarni ilgari surish hamda o'z tadqiqot natijalarini akademik talablarga muvofiq ifodalash qobiliyatini kompleks baholashni nazarda tutadi. Shu jihatdan, mazkur dastur tarixshunoslik va manbashunoslik sohasida ilmiy salohiyatga ega, mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy metodologik yondashuvlarni egallagan va ilmiy-tadqiqot faoliyatini xalqaro akademik mezonlar asosida olib bora oladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Asosiy qism

Tarixshunoslik fanining shakllanishi va rivojlanish tarixi, tarixshunoslik tushunchasining mazmun-mohiyati, uning tarix fani va ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimidagi o'rni hamda ilmiy ahamiyati. Tarixshunoslikning davrlashtirilishi, asosiy turlari va yo'nalishlari. Tarixiy bilimlarning shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini tarixiy jarayonlar bilan uzviy bog'liqlikda o'rganish.

Qadimgi davr tarixiga oid tarixiy asarlar, xususan, Gerodotning "Tarix", Strabonning "Geografiya", Fukididning tarixiy asarlari, Polibiyning "Umumiy tarix", Kvin Kursiy Rufning "Makedoniyalik Aleksandr tarixi", Arrianning "Aleksandrning yurishlari" hamda Yuliy Sezarning "Galliya urushi haqida" kabi asarlarining tarixshunoslikdagi o'rni va ilmiy ahamiyati. Mazkur asarlarning tarixiy tafakkur, tarixiy bayon va ilmiy tarixning shakllanishiga qo'shgan hissasini qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish.

O'rta asr Yevropa tarixshunosligining o'ziga xos xususiyatlari, gumanistik tarixshunoslikning shakllanishi va tarixiy tafakkur taraqqiyotidagi ahamiyati. Yangi davr tarixshunosligining rivojlanishi, tarix falsafasi va tarixiy jarayonlarni talqin etishning yangi konsepsiyalari. Ogyust Kontning pozitivizm ta'limoti va tarixiy jarayonlarni empirik dalillar, ilmiy kuzatish hamda tarixiy qonuniyatlarni aniqlash asosida o'rganish konsepsiyasi. Georg Vilgelm Fridrix Gegelning tarix falsafasi, tarixiy taraqqiyot, zaruriyat va erkinlik, dialektik rivojlanish hamda umumjahon tarixi haqidagi qarashlari.

Karl Marks, Vilgelm Diltey, Maks Veber, Benedetto Kroche va boshqa mutafakkirlarning tarixiy jarayonni tushuntirish va anglashga doir konsepsiyalari. Mazkur qarashlarning tarixshunoslik metodologiyasida tarixiylik, sababiyat,

determinizm, xolislik, empiriklik, dialektik tahlil, tushunish va izohlash tamoyillarining shakllanishi hamda rivojlanishiga ta'siri. Tarix falsafasidagi mazkur konsepsiyalarning zamonaviy tarixiy tadqiqotlardagi ilmiy ahamiyati va metodologik cheklovlarini qiyosiy-tanqidiy tahlil qilish.

XIX-XXI asrlarda Yevropa tarixshunosligining asosiy maktablari va ilmiy yo'nalishlari, ularning shakllanish omillari, metodologik xususiyatlari va tarix fanining rivojiga qo'shgan hissasi. Tarixshunos olimlarning ilmiy merosi, asosiy tadqiqotlari va tarixiy konsepsiyalarini qiyosiy-tahliliy o'rganish. Markaziy Osiyo tarixini o'rganishda xorijiy tarixshunoslik maktablari va tadqiqotchilarining ilmiy qarashlari.

Manbashunoslik fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. Tarixiy manbalarni aniqlash, yig'ish, tasniflash, tizimlashtirish va ilmiy muomalaga kiritishning nazariy hamda amaliy asoslari. Manbalarni mavzusi, davri, kelib chiqishi, turi va mazmuniga ko'ra saralashning asosiy tamoyillari. Tarixiy manbalarni tahlil qilish usullari. Manbalarni tashqi va ichki tanqid asosida o'rganish, ularning yaratilish davri, joyi, muallifi, maqsadi, mazmuni, tarixiy sharoiti va haqqoniylik darajasini aniqlash. Matnshunoslik, paleografiya, diplomatik va boshqa yordamchi tarix fanlari metodlaridan foydalanish. Asl manbani aniqlash, manbaning yaratilish shart-sharoitlarini rekonstruksiya qilish hamda undagi tarixiy voqelikning aks etish darajasini baholash.

Asl manbadan ko'chirilgan nusxalarni aniqlash, nusxalarning asl manbaga yaqinlik darajasini belgilash, matndagi o'zgarish va qo'shimchalarni aniqlash muammolari. Alohida tarixiy manbani kompleks tadqiq etish, manbaga ilmiy tavsif berish va uning tarixiy tadqiqotdagi ilmiy qiymatini aniqlash. Tarixiy manba asosida ilmiy xulosa chiqarishning metodologik tamoyillari. O'rta Osiyo tarixiga oid qadimgi va ilk o'rta asr yozma manbalari, jumladan, arab yozuvigacha bo'lgan manbalar. Qadimgi epigrafik manbalar va ularning tarixiy jarayonlarni o'rganishdagi ahamiyati. Sharq qo'lyozmalari xazinalari, ularning tarkibi, ilmiy qiymati va tarixiy tadqiqotlarda foydalanish imkoniyatlari.

O'rta Osiyoning IX-XV asrlar tarixiga oid yozma manbalar, XVI-XIX asrlar tarixiga oid manbalar, shuningdek, O'rta Osiyo tarixiga doir rus va Yevropa tillaridagi yozma manbalar. Mazkur manbalarni kelib chiqishi, mazmuni, muallifligi, tarixiy sharoiti va haqqoniylik darajasi nuqtayi nazaridan tanqidiy tahlil qilish. O'zbekistonning XX asr tarixi va mustaqil taraqqiyoti davriga oid manbalar. Rasmiy hujjatlar, statistik ma'lumotlar, matbuot materiallari, xotiralar, epistolalar, audiovizual materiallar va raqamli manbalarning tarixiy tadqiqotlardagi o'рни. Tarixiy manbalarni to'plash, saqlash, raqamlashtirish, kataloglashtirish va ilmiy muomalaga kiritishning zamonaviy usullari.

“Fan va texnika tarixi” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, ilmiy va amaliy ahamiyati. “Fan” va “texnika” tushunchalarining mazmuni, ularning shakllanish va rivojlanish qonuniyatlari hamda tamoyillari. Fanning tarkibi va tuzilishi, ilmiy faoliyatni tashkil etish va boshqarish, fanlar tasnifi, fanning ijtimoiy roli va rivojlanish istiqbollari. Antik davrda ilmiy tafakkurning shakllanishi va rivojlanishi. IX-XI asrlardagi musulmon Uygʻonish davri va Sharq olimlarining jahon ilmiy taraqqiyotiga qoʻshgan hissasi. Oʻrta asrlar Yevropa fani va Uygʻonish davrida ilmiy bilimlarning rivojlanishi. XIV-XVI asrlarda Yevropada ilmiy bilimlar taraqqiyotining yangi bosqichi.

Markaziy Osiyoda Amir Temur va temuriylar davrida fan taraqqiyoti. Yangi davr fanining shakllanishi, ilmiy bilimlarning institutsionallasuvi va zamonaviy fan konsepsiyasining vujudga kelishi. XX asrda ilmiy-texnik taraqqiyot, ilmiy-texnika inqilobi va uning jamiyat taraqqiyotiga taʼsiri. Mustaqil Oʻzbekistonda fan va texnika taraqqiyotining asosiy yoʻnalishlari. Ilmiy salohiyatni rivojlantirish, ilmiy infratuzilmani modernizatsiya qilish, innovatsion faoliyatni qoʻllab-quvvatlash va zamonaviy ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish masalalari. Zamonaviy ilmiy adabiyotlar, nazariy konsepsiyalar va olib borilayotgan tadqiqotlarni tahlil qilish, ilgʻor ilmiy tajribalarni umumlashtirish hamda ilmiy kadrlar tayyorlashga qoʻyilayotgan talablarni oʻrganish.

Tarixshunoslik tarix fanining ixtisoslashgan yoʻnalishi sifatida tarixiy bilimlarning shakllanishi, rivojlanishi va ilmiy konsepsiyalarning oʻzgarishini oʻrganadi. U muayyan tarixiy davrda yaratilgan ilmiy asarlar, tarixiy tadqiqotlar, ilmiy maktablar va konsepsiyalarni tahlil qilish orqali tarix fanining taraqqiyot qonuniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Tarixshunoslik, shuningdek, maxsus tarix fanlari va alohida ilmiy yoʻnalishlarning shakllanish hamda rivojlanish tarixini ham tadqiq etadi.

Tarixshunoslikning asosiy vazifasi tarix fanining rivojlanish jarayonini chuqur va xolisona anglash, muayyan davrda toʻplangan tarixiy bilimlarni tahliliy tadqiq etish, mavjud ilmiy natijalarni umumlashtirish, tarixshunoslikdagi bahsli va yetarlicha oʻrganilmagan muammolarni aniqlash hamda istiqboldagi ilmiy tadqiqot yoʻnalishlarini belgilashdan iborat. Shu bilan birga, tarixshunoslik muayyan ilmiy muammo boʻyicha yaratilgan adabiyotlarni tizimlashtirish, ularning metodologik va konseptual yondashuvlarini qiyoslash hamda tadqiqotchiga mavjud ilmiy izlanishlar holatini aniqlash imkonini beradi.

Tarixshunoslik orqali tarixiy voqea-hodisalarning turli davrlarda ilmiy tafakkurda qanday talqin etilgani, tarixiy bilimlarning rivojlanish jarayoni, ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy muhitning tarix faniga taʼsiri, muayyan ilmiy yoʻnalishlarning shakllanishi va rivojlanish omillari aniqlanadi. Tarixshunoslik

tarixiy bilimlarning evolyutsiyasini jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari bilan bog'liq holda tahlil qilish imkonini beradi.

Shuningdek, ilmiy-tadqiqot markazlari, ilmiy maktablar va ilmiy jamoalarning tarixini, ularda faoliyat yuritgan olimlarning ilmiy merosi va ilmiy salohiyatini, ularning tarix fanining rivojiga qo'shgan hissasini o'rganish ham zamonaviy tarixshunoslikning muhim yo'nalishlaridan hisoblanadi. Bunday yondashuv tarix fanining institutsional rivojlanish jarayonlarini, ilmiy maktablar o'rtasidagi ilmiy aloqalarni va tarixiy bilimlarning shakllanish mexanizmlarini kompleks tahlil qilish imkonini beradi.

Mazkur mazmun oliy ta'limdan keyingi ta'lim bosqichida tadqiqotchilarning tarixshunoslik va manbashunoslik bo'yicha nazariy bilimlarini chuqurlashtirish, tarixiy manbalarni mustaqil va tanqidiy tahlil qilish, tarixshunoslikdagi ilmiy konsepsiyalarni qiyoslash, zamonaviy tadqiqot metodlaridan foydalanish hamda ilmiy muammolarni mustaqil aniqlash va asoslash kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltiriladi. Tarixshunoslik va manbashunoslik sohasiga oid tadqiqotlarning bir qancha tahlil usullari mavjud:

Qiyosiy tarixiy usul – turli tarixiy davrlarda tarixiy ma'lumotlar va jamiyat taraqqiyotida tarixiy fikrlarning qanday paydo bo'lishi, harakatlanishi, o'zgarishi va rivojlanishi jarayonini aniqlashda qo'llaniladi.

Aniq tahliliy usul – olib borilgan Tarixshunoslik tadqiqoti voqea-hodisalar tafsilotini kelib chiqish sabablari, rivojlanish jarayonini nazariy va faktik materiallarning o'zaro aloqasida taxlil qiladi, ularning fanda qanday yoritilganligini o'rganadi.

Mantiqiy tahliliy usul – tarixshunoslikda katta imkoniyatlarga ega bo'lib, tarixiy muammoning o'ziga xos xususiyatlari, tuzilishi, boshqa tarixiy hodisalar bilan bog'liqligini o'rganishda qo'llaniladi. Boshqacha aytganda, ma'lum bosqich yoki davrda tarix fanining rivojini jamiyat taraqqiyotining asosiy yo'nalishi bilan bog'liqlikda ifodalaydi.

Xronologik usul – voqea-hodisalar haqida turli bosqich yoki davrda to'plangan tarixiy faktlarni o'zaro bog'liklikda o'rganishda qo'llaniladi. Bu esa turli zamonda ilmiy fikrlarning harakatini, muammoga yondashuvda konsepsiyalar, qarashlar, g'oyalarning o'zgarib borishini xronologik tartibda takroriy yoki xilmaxil jihatlarini ochib beradi.

Davriylashtirish usuli – ma'lum bir tarixiy davriy chegarada tarix fanining sifat, uslub va xususiyatlarining o'zgarishiga ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning ta'siri, har bir yangi bosqichda vujudga kelgan ilmiy g'oyalarni harakatlantiruvchi omil va yo'nalishlar aniqlanadi.

Retrospektiv tahlil usuli – har bir ilmiy adabiyot o'z davriga taalluqli bo'lib, uning kuchli va kuchsiz jihatlarini o'zida aks ettiradi. Tarixshunoslik

tadqiqotlarda tadqiqotchining vazifasi oʻzidan avvalgi bosqichlarda yaratilgan ilmiy asarlarni zamonaviy bilimlar nuqtai nazaridan oʻrganish, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini taxlil qilishdan iborat.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shavkat Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining YuNESKO Bosh konferensiyasi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi. – T.: O'zbekiston, 2025.
2. Shavkat Mirziyoyev. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. – T.: O'zbekiston, 2024.
3. Shavkat Mirziyoyev. Inson qadri uchun // Saylovoldi dasturi. – T.: O'zbekiston, 2023.
4. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2022.
5. Shavkat Mirziyoyev. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun. – T.: O'zbekiston, 2022.
6. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. – T.: O'zbekiston, 2021.
7. Shavkat Mirziyoyev. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – T.: O'zbekiston, 2020.
8. Shavkat Mirziyoyev. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – T.: O'zbekiston, 2019.
9. Shavkat Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017.
10. Shavkat Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida farmoni. – T.: Adolat, 2017.
11. Shavkat Mirziyoyev. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etish. – T.: O'zbekiston, 2017.
12. Shavkat Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovidir. – T.: O'zbekiston, 2017.
13. Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017.
14. Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. – T.: O'zbekiston, 2011.
15. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: O'zbekiston, 2008.
16. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: Muloqot, 1998.
17. Karimov I.A. O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. – T.: O'zbekiston, 1996.

18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. O‘rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish tizimini joriy etish to‘g‘risida. № 498 // 06.08.2025.

19. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Oliy ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. № 14 // 16.01.2025.

20. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi faoliyatini tartibga solish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida. № 489 // 08.08.2024.

21. Ergashev B.E. Manbashunoslik va tarixshunoslik. – Samarqand, 2021.

22. Ergashev B.E. Xorijiy mamlakatlar tarixshunosligi. – Samarqand, 2026.

23. Ergashev B.E. Tarixiy rekonstruksiya masalalari. – Samarqand, 2025.

24. Ergashev B.E. Mustamlaka Turkistonda ish yuritish manbashunosligi. – Samarqand, 2024.

25. Ergashev B.E., Yarmatov O.Sh. Maorif tarixi manbashunosligi. – Samarqand, 2024.

26. Yarmatov O.Sh. Ta’lim tizimi tarixini yorituvchi manbalar. – Samarqand, 2025.

27. Yarmatov O.Sh. Tarixshunoslik va manbashunoslikning nazariy asoslari. – Samarqand, 2026.

28. Abriyev H.B. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari Mustaqil O‘zbekiston tarixini o‘rganishda manba sifatida. – Samarqand, 2026.

29. Ergashev S.M. Paleografiya va matnshunoslik nazariyasi. – Samarqand, 2025.

30. Maxmudov T.I. Muzeyshunoslik va arxivshunoslik. – Samarqand, 2024.

31. Maxmudov T.I. Zamonaviy jahon muzeyshunosligi. – Samarqand, 2023.

32. Saidova R.I. Ish yuritish hujjatshunosligi. – Samarqand, 2026.

33. Saidova R.I. O‘zbekiston va jahon san’ati manbashunosligi. – Samarqand, 2025.

34. Yakubov A.S. Fan va texnika tarixi. – Samarqand, 2023.

35. Saidov I.M. Tarix o‘qitish metodikasi. – Samarqand, 2021.

36. Amirqulov J.B. Manbashunoslik. – Samarqand, 2020.

37. Asatullayev M.I. Tarix falsafasi va metodologiyasi. – Samarqand, 2020.

38. Раджабова Д.Н. Историография. – Самарканд, 2022.

39. Эргашев Б.Э. Источниковедение. – Самарканд, 2023.

40. Вафаева Дж.Б. Методика преподавание истории. – Самарканд, 2023.

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETINING TAYANCH DOKTORANTURA
IXTISOSLIKLARIGA KIRISH SINOVLARI UCHUN MUTAXASSISLIK
FANLARDAN TALABGORLARNING BILIMLARINI
BAHOLASH MEZONI**

Sinov topshirish shakli	Yozma
Ajratilgan vaqt	120 daqiqa
Savollar soni	5
Har bir savol uchun belgilangan ball	20
Eng yuqori ball	100